



THE PROBLEM OF MORAL IMMUNITY AND SPIRITUAL ALIENATION IN YOUTH UNDER GLOBALIZATION

Bahodir Savronovich Mavlyanov

Independent researcher

Advisor to the Akim of Jizzakh region

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: spirituality, history, globalization, spiritual alienation, spiritual crisis, social alienation, self-alienation, humanity.

Received: 26.01.26

Accepted: 27.01.26

Published: 28.01.26

Abstract: This article analyzes the problem of globalization and spiritual alienation from a socio-philosophical point of view. It is also scientifically substantiated that spiritual alienation as an objective-subjective process is a crisis of the spiritual world of a person, individual social groups and society as a whole.

As well as attracting the younger generation to useful work, meaningful spending of free time, the ability to understand changes in their mentality in time and be able to direct them correctly, strengthening the socialization of young people in society, a sense of courage and patriotism among young people studying in the system of continuous education, as well as conclusions. and proposals aimed at further strengthening national pride, banning social networking sites that negatively affect the national interests and spirituality of young people, causing their alienation from national values, increasing patriotism and national pride among young people.

MA'NAVIY BEGONALASHUV - JAMIYAT IJTIMOIIY BARQARORLIGIGA TAHDID SIFATIDA

Baxodir Savronovich Mavlyanov

Mustaqil tadqiqotchi

Jizzax viloyati hokimining maslahatchisi

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: ma'naviyat, tarix, globallashuv ma'naviy begonalashuv, ma'naviy inqiroz, ijtimoiy begonalashuv, oʻz-oʻzidan begonalashish, insoniylik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv va ma'naviy begonalashuv muammosi ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, ma'naviy begonalashuvning obyektiv-subyektiv jarayon sifatida inson, muayyan ijtimoiy guruhlar va umuman jamiyat ma'naviy olami inqirozini ifodalashi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, yosh avlodni foydali mehnatga jalb etish, ularning boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazish, ularning ruhiyatidagi oʻzgarishlarni oʻz vaqtida anglash va toʻgʻri yoʻnaltira olish, yoshlarning jamiyatga ijtimoiylashuvini kuchaytirish, uzluksiz taʼlim tizimida taʼlim olayotgan yoshlarda atrof-muhitda roʻy berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan daxldorlik hissi, vatanparvarlik, hamda milliy gʻururni yanada kuchaytirish, ijtimoiy tarmoqlarda milliy manfaatlarga va yoshlar ma'naviyatiga salbiy taʼsir qiluvchi, ularni milliy qadriyatlardan begonalashishiga sabab boʻluvchi saytlarga taqiq qoʻyish, yoshlarda vatanparvarlik va milliy gʻururni yuksaltirishga yoʻnaltirilgan xulosa va takliflar berilgan.

ПРОБЛЕМА МОРАЛЬНОГО ИММУНИТЕТА И ДУХОВНОГО ОТЧУЖДЕНИЯ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Баходир Савронович Мавлянов

Независимый исследователь

Советник хакима Джизакской области

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: духовность, история, глобализация, духовное отчуждение, духовный кризис, социальное отчуждение, самоотчуждение, человечество.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема глобализация и духовного отчуждения с социально-философской точки зрения. Также научно обосновано, что духовное отчуждение как объективно-субъективный процесс представляет собой кризис духовного мира человека, отдельных социальных групп и общества в целом.

А также привлечение молодого поколения к полезному труду, осмысленное проведение свободного времени, умение вовремя понять изменения в их менталитете и уметь правильно их направить, усиление

социализации молодежи в обществе, чувство смелости и патриотизма у молодежи, обучающейся в системе непрерывного образования., а также выводы и предложения, направленные на дальнейшее укрепление национальной гордости, запрет сайтов в социальных сетях, негативно влияющих на национальные интересы и духовность молодежи, вызывая их отчуждение от национальные ценности, повышение патриотизма и национальной гордости у молодежи.

Bugungi globallashgan jamiyat yoshlari ruhiyatida mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida ma'naviy begonalashuvning oldini olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki yoshlar globallashgan jamiyat va uning zamirida kirib kelayotgan yoki targ'ib etilayotgan turli zamonaviy ko'rinishdagi "ommaviy madaniyat" namunalarining eng faol ishtirokchilari, iste'molchilaridir. Shu jarayonda, ya'ni yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ular ongida ma'naviy begonalashuvning oldini olish jarayonida globallashuv tushunchasiga alohida to'xtalib o'tishimiz zarur.

Hozirgi kunda globallashuv hamda bu jarayon xususida ko'plab ta'rif berilmoqda. Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levittning 1983-yildagi "Garvard biznes revyu" jurnalida e'lon qilingan maqolasida qo'llanilgan edi.

Fransuz tadqiqotchisi B.Bandining fikricha, globallashuv-muttasil davom etadigan tarixiy jarayon. Globallashuv-jahonning gomogenlashuvi va universallasuvi jarayoni. Globallashuv – milliy chegaralarning "yuvilib ketishi" jarayoni. Globallashuv jarayoni rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tafovutni asta-sekinlik bilan kuchaytiradi. Zamonaviy globallashuv keng, ko'pqirrali jarayon bo'lib, uning turli sohalardagi bir nechta ta'rifi mavjud. Zamonaviy iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy va boshqa sohalardagi globallashuv jarayonining negizida ilmiy-texnik taraqqiyot va axborot texnologiyalarining gurkirab rivojlanishi yotadi. Mazkur jarayonga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Bu tabiiy hol. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, globallashuv jarayonlari qator davlatlar tomonidan geosiyosiy omil sifatida foydalanilmoqda. []

Aslida, globallashuv XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli darajada va ko'rinishlarda mavjud bo'lgan va hozirgi davrimizga kelib bu jarayonning avj olishi ro'y bermoqda. Buning ayrim jihatlari jamiyatimiz uchun ijobiy bo'lsa, ayrimlari salbiy ta'sir etadi. Bu ayniqsa, yoshlar ma'naviyatiga yetarlicha zarar keltiradi.

Albatta, bu jarayonlardan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Muammoning qay darajadaligidan qat’iy nazar uning oldini olish, bunga qarshi kurashish choralarini izlash bizning oldimizda turgan vazifadir.

Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin. Ezgulik yo‘lidagi harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo‘lsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsuli esa buning tamomila aksidir.

Globallashuv jarayonida tahdidlar masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, barcha sohalarida bo‘lgani kabi jamiyat yoki jamiyatning kelajagi bo‘lmish yoshlar ma’naviyatiga ham turli salbiy illatlarni olib kirishi bilan birga ularning o‘z ma’naviyatidan, qadriyatlaridan, milliy urf-odatlaridan begonalashishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.

Avvalo, globallashuv – bu ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayon bo‘lib, xalqlarning madaniyatiga kuchli ta’sir etuvchi hodisa sifatida o‘rganiladi.

Ammo, dunyoda axborot almashinuvining o‘sishi bilan madaniyat, ilm-fan sohasiga ham kirib keldi. Natijada millat madaniyatiga ta’sir etuvchi ma’naviy tahdidlar insoniyat oldiga yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Chetdan kirib kelayotgan, mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlar ongini individualizm, egotsentrizm g‘oyalari bilan zaharlovchi, ular ongida o‘z milliy qadriyatlari, urf-odatlari, tarixi va ma’naviyatidan begonalashuv holatlarining vujudga kelishi kabi ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishimiz zarur. Bebaho boyligimiz milliy ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirgan holda ma’naviy tahdidlarni oldini olishga erishishimiz mumkin. Ma’naviyat haqida gap ketganda, shuni alohida ta’kidlash lozimki, eng avvalo, millatni, milliy madaniyatni, milliy turmush tarzini muhofaza qiladi. Shunday ekan globallashuv jarayonida mamlakat milliy madaniyatiga raxna soluvchi ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda insonlarni yuksak ma’naviyatli bo‘lishi muhim omil hisoblanadi. Buning uchun jamiyatda ma’naviy-mafkuraviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish zarur. Ya’ni, birinchidan, mamlakat kelajagi bo‘lmish yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ikkinchidan, ma’naviy tahdidlarni aynan nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab yetish, uchinchidan, atrofimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo‘lmasdan, daxldorlik hissini oshirish.

Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arziyas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin. Jumladan, ma’naviy tahdidlarning bir ko‘rinishi bo‘lgan “ommaviy madaniyat” niqobidagi tazyiqlarning yoshlar ongiga ta’siri jamiyat taraqqiyoti uchun xavf soladi. Ayniqsa, voyaga yetmagan bolalarning turli internet klublarida o‘tirishlari va pornografik saytlarga kirishlari, mobil

telefonlardan noto'g'ri foydalanib, behayo film va suratlar olib yurishlari, bularning barchasi inson ma'naviy kamolotiga ulkan zarar keltiradi. Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim.

Globallashuv davrida undan tashqarida bo'lishning iloji yo'qligini bugun hamma tang oladi. O'zbekiston ham uning qa'rida, o'ziga xos bo'lgan o'rinni egallab, ne'matlardan bahramand bo'lmoqda. Shu bilan birga, ushbu inkor qilib bo'lmaydigan jarayon, yangi asrning mo'jizasi kishilik hayot tarziga, dunyoqarashiga muayyan muammolarni ham olib kirayotganligi bor gap. Jumladan, insonlar o'rtasidagi an'anaviy, ma'naviy qadriyatlar qisman susayganday, ayniqsa, yosh avlod dunyoqarashiga nisbatan ma'naviy tahdidlar kuchayganday holat ko'zga tashlanmoqda. Globallashuv, uni ayni paytda, axborot asri ham deb atashmoqda, cheksiz axborotlar bosimi nainki yoshlar, balki katta avlod vakillari dunyoqarashini ham junbushga keltirmoqda desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Shu ma'noda jarayon har birimizni, hammamizni, mamlakatimizni ma'lum ma'noda sinovdan o'tkazyapti deyish mumkin. Bugun yurtimizda o'z taqdirining egasi bo'lib, qadr-qimmatini anglab, munosib hayot kechirish, umuminsoniyatning erishgan va amaliyotda bo'lgan huquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatlari to'la mujassam. Fuqarolarning ma'naviy-ma'rifiy darajasi esa o'z navbatida, jamiyatning umumiy holatini o'zgartiradi. Ayni paytda, bunday erkinlik kishilarning iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda o'z iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishiga, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishiga zamin yaratadi. O'zbekistonliklar hech kimdan kam emasligini va kelajakda ham kam bo'lmasligini anglab yetdi. Bu yurtning har bir fuqarosiga muayyan darajada g'ururlanish immunitetini beradi, albatta. Chorak asrdan ziyod vaqt uchun bu kam natija emas, lekin keyingi yillarda yoshlar o'rtasida o'tkazilayotgan sotsiologik so'rovlar jarayonlar tahlili bu soha muammosiz emasligidan darak bermoqda. Ya'ni, vaziyat mamlakatimizda vatanparvarlik tarbiyasini yangi bosqichga olib chiqishni, qamrovini tobora kengaytirib borishini taqozo etmoqda. Ko'p qirrali islohotlar davrida, jamiyat mentaliteti tubdan o'zgarayotgan, tuzum yangi mazmun va tartibotlarga kirayotgan bir paytda, aholini ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga mos keluvchi hayotbaxsh intilishlar ifodasi bo'lgan g'oyalar va maqsadlar bilan qurollantirish katta ahamiyatga egadir.[]

O'zbekistonda bugungi ma'naviy muhitga osonlikcha erishilgani yo'q. Yillar mobaynida yangi taraqqiyot yo'liga qadam qo'yilganidan so'ng xalqning xohish-irodasi, asriy orzu-intilishlariga tayangan holda, sho'ro davridan og'ir meros bo'lib qolgan ma'muriy-buyruqbozlik tizim tubdan isloh qilindi, uning o'rnida mohiyat-e'tibori bilan butunlay yangi-erkin bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etildi. Mamlakat mustaqilligi, uni ko'z qorachig'idek asrash, himoya qilish har bir kishining muqaddas burchiga, ma'naviy qadriyatiga aylandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev prezidentlikka kirishishga bag'ishlangan tantanada shunday degan edi: "Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimo ogoh va hushyor bo'lishni talab etmoqda. Shu borada O'zbekiston chegaralarining xavfsizligi va daxlsizligini ta'minlash, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yurtimiz ostonasiga hech qanday balo-qazoni yaqin keltirmaslik kabi hal qiluvchi vazifalar hamisha diqqatimiz markazida bo'ladi. Bugungi prinsipial jihatdan g'oyat muhim bo'lgan bir fikrni yana ta'kidlab aytishni zarur deb bilaman: O'zbekiston va uning bag'rikeng xalqi tinchliksevar siyosat yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash tamoyillarini amalga oshirish pozitsiyasida doimo mustahkam turib kelmoqda. Lekin, zarur bo'lsa, biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga, xalqimizning tinch va osuda hayotiga tahdid soladigan har qanday urinishlarga qarshi keskin zarba berishga qodirmiz"[]

Insoniyat hayotining rivojlanishi va texnika taraqqiyoti natijasida bugungi globallashtgan jamiyatda insonlarda bir-biri bilan yaqinlashish, jipslashishdan ko'ra, alohidalikka intilish, individualizmning kuchayishi kuzatilmoqda. Buni biz insonning atrofida gilaridan, yaqinlaridan yoki jamiyatdan begonalashishi deb izohlashimiz mumkin. Inson jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarning faol harakatlantiruvchi subyektini hisoblanar ekan, u jamiyat bilan munosabatlar sohasida yuzaga keladigan muhim muammolarni tushunishi, daxldorlik sezishi va mantiqiy izohlashda ustuvor o'rinni egallashi lozim.

Bugungi globallashtgan jamiyatda ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq muammolardan biri bu begonalashuvdir. Shuning uchun begonalashuvni shaxsning o'zi yashab turgan sohadagi faoliyati — jamiyatning natijasi bo'lgan obyektiv jarayon va subyektiv harakatlar deb belgilab, bu muammoni shaxs va uning ijtimoiy-madaniy makonidagi qarama-qarshiliklar kontekstida ko'rib chiqsak, begonalashuvni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tushunish va o'rganishga keng imkon ochiladi.

Begonalashuv ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan kishilarning o'ziga nisbatan ishonchsizligi, ma'naviy-ruhiy jihatdan tushkunligi, o'z hayotlarini ijobiy tomonga o'zgartirish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rmasligi oqibatida yuzaga keladi. Oqibatda esa ular jamiyat tomonidan belgilangan ma'naviy-axloqiy talablarni buzgan holda faoliyat olib borishga harakat qiladi. Jamiyat oldidagi o'z majburiyatlaridan og'ish, o'zi yashayotgan muhit yoki jamiyat maqsadlariga yot bo'lgan hatti-harakatlarni amalga oshirish, kishilarning o'z-o'zidan qoniqmasligi, o'zining o'zidan begonalashuvi, o'z qobiliyatiga ishonchsizligi ustuvor o'rinni egallaydi.

Begonalashuv muammosi bir asrdan ko'proq vaqt davomida falsafada muhim o'rinni egallaganiga qaramay, bugungi kunda ham ko'pgina olimlarning e'tiborini jalb qilishda davom etmoqda. Bu holat ushbu muammo nafaqat hal qilinmaganligi, balki bir qator ijtimoiy-iqtisodiy

omillar ta'siri tufayli yanada murakkablashayotganligi bilan bog'liq. «Begonalashuv — inson faoliyati va uning natijalari mustaqil kuchga aylanib, inson ustidan hukmronlik va unga yovuzlik qiladigan holatga kirishishini ifodalaydigan ijtimoiy jarayon. Mehnat shart-sharoiti, vositalari va mahsuli ustidan ijtimoiy nazoratning yo'qligida, shaxsning hukmron ijtimoiy guruhlar tomonidan aldamchilik yo'li bilan boshqarish obyektiga aylantirilishida namoyon bo'ladi. Begonalashuv kishi ongida muayyan tarzda aks etadi, ya'ni ijtimoiy me'yorlarni yot va yovuz me'yorlar sifatida idrok etish, yolg'izlik hissi, loqaydlik va boshqalardir. Begonalashuv konsepsiyasining kelib chiqishi T.Gobbs, J.J.Russoga borib taqaladi, Hegel tomonidan esa rivojlantirildi. Shu boisdan ham inson faoliyatining begonalashuvi eng muhim ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Begonalashuv nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohada, balki inson faoliyatining barcha sohalarini o'z ichiga qamrab oladi. Begonalashuv — bu tashqi va ichki qarama-qarshi hamda salbiy xarakterli shakllarda namoyon bo'ladigan shaxs va voqelik o'rtasidagi munosabatlarning yig'indisidir.

Ma'naviy begonalashuv bu jamiyat darajasida ma'naviy birlikning yo'qolishidir. Ma'naviy begonalashuv kishilar dunyoqarashining bir-biridan uzoqlashuvidir. Zero, o'z mohiyatidan begonalashgan inson boshqalarni qiziqishlari va hissiyotlari bilan hisoblashmaydi. "Begonalik hadik-xavotir keltirib chiqaradi va pirovard-natijada ayni shu bois xavotir yuzaga keladi. Begonaga, yot kimsaga aylanish dunyodan uzilishni, bu esa insoniy kuch-quvvatni tasarruf etish imkoniyatidan mahrumlikni bildiradi. Shu bois – begonalashuv – chorasizga, atrof-muhitga, ashyolarga va odamlarga faol ta'sir ko'rsata olmaslik demakdir; bu dunyo haq-huquqlarimga hamla qila olishini, men esa o'zimni himoya qila olmasligimni bildiradi".

Ma'naviy begonalashuv bu hayotning ma'nosizligi emas, balki aqlning ma'nosizlashuvdir. Bu ma'nosiz vaziyatdan chiqib ketishning yagona yo'li inson va butun borliqni birlashtiruvchi, uni yagona koinot deb tan oluvchi ma'naviy-ruhiy kuchga murojaat qilish, bu kuch orqali xudoning insonga bo'lgan muhabbatini his qilishidir. Bunday bilish jarayoni tasavvufda irfoniylar bilish deb ataladi. Sharqning buyuk mutafakkiri Imom G'azzoliy bunday ilmni quyidagicha ta'rif va tavsif etadi. "Zero, ilm ko'r qalb ko'zini ochuvchi, qorong'u zulmatda nur bag'ishlovchi va zaif badanlarga kuch quvvatdir. Ilm bilan banda abrorlar ko'tariladi, oliy martabalarga yetishadi. Ilm ustida tafakkur qilish kunduzgi ro'za tutganga, uni muzokara etish kechani ibodat bilan bedor o'tkazganga tengdir. Allohga toat-ibodat tavhidni anglash, Allohni ulug'lash va taqvo qilish ilm bilan bo'ladi. Ilm bilan qarindoshlik aloqalari bog'lanadi. Harom bilan halol ajratiladi. Ilm peshvo-imomdir, amal unga ergashadi. Ilmdan bahramand insonlar baxtli mahrumlar esa, baxtsizdir".

Demak, yuksak madaniyatga intilgan jamiyatning har bir a'zosi ilmni rivojlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Zero inson bilimsiz, ko'rlarcha yashasa, chin (beg'araz) ishqsiz jamiyatning boshqa a'zolari bilan begonalarcha, zavqu-shavqsiz, quvonchlargasiz, o'zaro ziddiyat va janjallar ichida yashaydi. Jamiyatdagi barcha ziddiyatlar insonlarda yo bilimning sayozligi, yo

his-tuyg'ularning tubanligi, yo har ikkisining ham kamligi, shuningdek, xulqning buzilishidan kelib chiqishi ma'lum. Ayni paytda faylasuflar oqillik ham, hissiyotlar ham ma'naviyat masalasida oliy hakam bo'la olmaydi, deb uqtiradilar. Zero ma'rifatli bo'lish kishini aqlliyoq qiladi, va lekin uni yaxshi odamga aylantira olmaydi. Kishida his-tuyg'ular kuchli bo'lsa-yu, xulqi buzuq bo'lsa, buning foydasidan zarari ko'proqligi ma'lum.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Globallashuv sharoitida ma'naviy begonalashuvning inson ma'naviy takomiliga salbiy ta'sir etuvchi xususiyatlarining vujudga kelishini o'rganishda globallashuv va ma'naviy begonalashuv jarayoni har bir kishining faoliyati va harakatlarida o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Jarayon sifatida, globallashuv va ma'naviy begonalashuv, bir tomondan, individual va ijtimoiy hayotning ma'naviy sohasidagi o'zgarishlarni, o'z-o'zini tashkillashtirilgan, boshqalarni anglatadi. Ikkinchi tomondan esa ma'naviy begonalashuv ijtimoiy hayotda qadriyatlarni ratsionalizatsiya qilish qobiliyatini yo'qotish bilan tavsiflanadi. Uchinchi tomondan ma'naviy begonalashuv bugungi jamiyatning marginallashtirishda yorqin namoyon bo'ladi. To'rtinchidan, ma'naviy begonalashuv bu kishilar o'rtasida deviant xatti-harakatlarning o'sishi, iste'molchilarning kayfiyati kuchayishi, ijtimoiy-guruhiy va umummilliy identifikatsiya inqirozi va boshqalardan iboratdir. Mamlakatimizda bu kabi jarayonlar kuchayishining oldini olish yoki sekinlashtirish uchun uzluksiz ta'lim tizimining davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga yoshlarimizda atrof-muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan daxldorlik hissi, vatanparvarlik, hamda milliy g'ururni yanada kuchaytirish bilan bog'liq mavzularni kiritish, ta'lim tizimiga nisbatan bo'lgan yondashuv tendensiyasini o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Taklif va tavsiyalar:

1. Yosh avlodni foydali mehnatga jalb etish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularning ruhiyatidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida anglash va to'g'ri yo'naltira olish, jamiyatga ijtimoiylashuvini kuchaytirish hamda ularda turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish choralarini ko'rish.

2. Uzluksiz ta'lim tizimining davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga yoshlarimizda atrof-muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan daxldorlik hissi, vatanparvarlik, hamda milliy g'ururni yanada kuchaytirish bilan bog'liq mavzularni kiritish, ta'lim tizimiga nisbatan bo'lgan yondashuv tendensiyasini o'zgartirish.

3. Ijtimoiy tarmoqlardagi milliy manfaatlarga va yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir qiluvchi, ularni milliy qadriyatlardan begonalashishiga sabab bo'luvchi saytlarga taqiq qo'yish.

4. Ijtimoiy tarmoqlarni yoshlarda vatanparvarlik va milliy g'ururni yuksaltirishga va vaqtini mazmunli o'tkazishga yo'naltirilgan loyihalar, roliklar, buyuk ajdodlarimizning ibratli asarlaridan namunalar hamda boshqa ibratli ma'lumotlar bilan to'ldirish.

5. Yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish, yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish orqali xalqimizni, yoshlarni har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlash, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini yanada oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.-T.: "O'zbekiston", 2016. 9-b
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 27.
3. Sh.I.Paxrutdinov. Tahdid-halokatli kuch (maqola va ma'ruzalar to'plami).-T.: "Akademiya", 2004.
4. Abu Homid Muxammad al-G'azzoliy. Ihyo u ulumiddin. Birinchi kitob. -Toshkent.: "Fikrmedia", 2003. –B.33.
5. Abdulloh Ismatulloh. Ma'naviyat va ma'rifat // Milliy tiklanish, 1996. –B. 12.
6. Mahmudov T. Inson va ma'naviyat // Tafakkur va taqdir.-T.: Ma'naviyat, 1998. – B. 29.
7. N.Jo'rayev. Ma'naviyat-odam va olam xaloskori.-T.: Ma'naviyat», 2018.